

UMUMINSONIY QADRIYATLAR VA MILLIY MADANIYAT ASOSIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA JISMONIY TARBIYANING O'RNI

Bo'riboyev Alisher Yunusovich

Jizzax DPU katta o'qituvchisi

E-mail: boriboyevalisher1001@gmail.com

Ismatov Abduqodir Isaboyevich

Jizzax DPU katta o'qituvchisi

E-mail: abdikodirismatov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda ta'lim-tarbiya tizimini umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyat asosida rivojlantirish masalalari yoritilgan. Xususan, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol etib tarbiyalashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan dars, sinfdan tashqari va maktabdan tashqari jismoniy tarbiya tadbirlari orqali milliy qadriyatlarni singdirish yo'llari ilmiy-uslubiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar. Umuminsoniy qadriyatlar, milliy madaniyat, jismoniy tarbiya, barkamol avlod, ma'naviy tarbiya, sport tadbirlari, boshlang'ich ta'lim.

РОЛЬ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ И НАЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В данной статье освещаются вопросы развития системы образования и воспитания в Узбекистане на основе общечеловеческих ценностей и национальной культуры. В частности, проанализировано значение занятий физической культурой и спортом в формировании духовно-нравственно развитой личности подрастающего поколения. Научно-методически обоснованы пути внедрения национальных ценностей через уроки физической культуры, внеклассные и внешкольные мероприятия с учащимися начальных классов.

Ключевые слова: общечеловеческие ценности, национальная культура, физическое воспитание, гармонично развитое поколение, духовное воспитание, спортивные мероприятия, начальное образование.

THE ROLE OF PHYSICAL EDUCATION IN IMPROVING THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON UNIVERSAL VALUES AND NATIONAL CULTURE

Abstract. This article discusses the issues of developing the education system in Uzbekistan on the basis of universal human values and national culture. In particular, the significance of physical education and sports activities in fostering the moral and ethical development of the younger generation is analyzed. The ways of instilling national values through physical education lessons, extracurricular and out-of-school activities with primary school pupils are scientifically and methodologically substantiated.

Keywords: universal values, national culture, physical education, harmonious generation, moral education, sports activities, primary education.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya tizimini umuminsoniy qadriyatlar hamda milliy madaniyat asosida shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mustaqillik yillarida yaratilgan keng imkoniyatlar xalq og‘zaki ijodi, milliy pedagogika, jismoniy tarbiya va sport, shuningdek buyuk mutafakkirlarimizning tarbiyaga oid g‘oyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish uchun mustahkam zamin yaratdi. Ayniqsa, yosh avlodni ma’naviy yetuk, jismonan sog‘lom va vatanparvar ruhda tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

“Kelajak bugundan boshlanadi”, degan xalq hikmati ta’lim-tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni naqadar muhim ekanini ko‘rsatadi. Yoshlarning ruhiy-ma’naviy kamoloti ularning kelgusi hayotidagi ijtimoiy faolligi, mas’uliyati va intellektual salohiyatini belgilab beradi. Shu bois ta’lim samaradorligini oshirish, uni ilg‘or pedagogik tajribalar bilan boyitish bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi. Milliy madaniyat, xalq musiqasi, urf-odatlar, an‘analari asosida olib borilgan tarbiya jarayoni o‘quvchilarda o‘z millatiga nisbatan muhabbat, faxr va g‘urur tuyg‘ularini shakllantiradi. Bu esa ularda sog‘lom dunyoqarash, mustahkam e’tiqod va yuksak ma’naviyatni kamol toptirishga xizmat qiladi. Mustaqil O‘zbekiston sharoitida milliy madaniyatimizni tiklash, yosh avlodni axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalash ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2026-yil 28-yanvardagi 34-sonli qarori** bilan tasdiqlangan “Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturi”da — ta’limning barcha bosqichlarida milliy qadriyatlar hamda vatanparvarlik ruhini yoshlar ongiga uzluksiz, tizimli va samarali tarzda singdirishdir. Qarorda yosh avlodni milliy meros, tarix, axloq-odob va vatanparvarlik tamoyillari asosida tarbiyalash, **“Kelajak soati”** darslarini joriy etish hamda O‘zbekistonning **Milliy tarbiya modelini** ishlab chiqish kabi vazifalarni belgilaydi.

Ma’naviy qadriyatlar insonning atrof-muhitni anglash va amaliy faoliyat jarayonida shakllanadi. Ular ta’lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish orqali rivojlanadi. Bugungi yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalash nafaqat shaxs kamolotiga, balki jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy salohiyatini yuksaltirishga ham xizmat qiladi.

Milliy tarbiya nazariyasi falsafa, pedagogika, psixologiya, adabiyot, estetika va etika fanlari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. U hayotning ichki mohiyatini,

insonlar o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. Hozirgi zamon talabi shunchaki bilimli emas, balki ijodkor, tashabbuskor va iqtidorli shaxslarni tarbiyalashdan iborat.

Maktab ta'limi davrida milliy tarbiya o'quvchilarning turli qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ularning tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari kengayadi, jismoniy imkoniyatlari mustahkamlanadi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari orqali bolalarda irodaviy sifatlar, intizom va jamoaviylik hislari shakllanadi.

Umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy tarbiyani tashkil etish bir qator muhim tamoyillarga tayanadi. Jumladan, tarbiyaning aniq maqsadga yo'naltirilganligi, insonparvarlik ruhida olib borilishi, hayot va mehnat bilan uzviy bog'lanishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi hamda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Musiqqa san'ati ham tarbiya jarayonida alohida o'rin tutadi. U insonning his-tuyg'ularini ifodalab, o'quvchilarda estetik didni rivojlantiradi. Milliy musiqqa orqali yoshlarda milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmat va qiziqish kuchayadi.

Adabiyotlar tahlili va amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari nafaqat sog'lomlashtirish, balki tarbiyaviy jihatdan ham muhimdir. Dars jarayonlari, sinfdan tashqari va maktabdan tashqari tadbirlar orqali o'quvchilarga milliy qadriyatlar singdiriladi.

Darsdan oldingi gimnastika mashqlari o'quvchilarni aqliy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi. Jismoniy tarbiya daqiqalari esa bolalarning ish qobiliyatini oshirib, charchoqni kamaytiradi. Tanaffus paytidagi harakatli o'yinlar sog'lom dam olishni ta'minlab, jismoniy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar – sport to'garaklari, bayramlar, musobaqalar va "Salomatlik kuni" kabi tadbirlar o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish bilan birga, ularni jamoaviylik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Sport to'garaklari ayniqsa qobiliyatli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash testlari orqali ularning kuch, tezkorlik, chidamlilik va chaqqonlik kabi sifatleri baholanadi. Bu jarayon sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Maktabdan tashqari mashg'ulotlar – sport maktablari, mahalla tadbirlari, oilaviy musobaqalar orqali bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga yordam beradi. Mahallalarda mavjud sport inshootlaridan foydalanish jismoniy tarbiya samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyat asosida olib borilgan ta'lim-tarbiya jarayoni yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya tizimi orqali sog'lom, ma'naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxslar shakllanadi. Bu esa jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvardagi 34-sonli qarori “Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish” 29.01.2026.
2. Axmedov.F.Q. “Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi” , “Ruxsora servis” nashriyoti-2021
3. Atamurodov.SH.O‘. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. “Jizzax-2024” – Toshkent, 2020.
4. Axmedov F.Q., Abdulaxatov A.R. O‘zbek kurashi – milliy va umuminsoniy qadriyatlar durdonasi. – Toshkent. 2017.
5. Tulenov J. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot – Toshkent: O‘zbekiston, 1999.
6. Farmonova M. Qadriyatlar – ma’naviy kamolot asosi – Toshkent: Tasvir nashriyot uyi, 2019.